



FORENSIC CHARACTERISTICS OF CRIMES INVOLVING VIOLATION OF TRAFFIC SAFETY RULES OR VEHICLE OPERATION

Majidov Jamshed Abdulla o'g'li

Independent Researcher at the Academy of the Ministry of Internal
Affairs of the Republic of Uzbekistan
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15332032>

ARTICLE INFO

Received: 25th April 2025
Accepted: 29th April 2025
Online: 30th April 2025

KEYWORDS

Vehicles, safety regulations, forensic characteristics, crime scene evidence, forensic examination, evidence, objective elements of a crime, subjective elements, prevention.

ABSTRACT

This article focuses on the forensic features of crimes related to violations of traffic safety rules or vehicle operation. The article analyzes the objective and subjective elements of these types of crimes, their methods of commission, crime scene evidence, as well as the primary methods used in forensic investigations. The importance of forensic examination and evidence collection in determining the nature of these crimes is discussed, along with proposals aimed at preventing such offenses. This article is intended for specialists working in the fields of forensic science and law enforcement.

TRANSPORT VOSITALARI HARAKATI YOKI ULARDAN FOYDALANISH XAVFSIZLIGI QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINING KRIMINALISTIK TAVSIFI

Majidov Jamshed Abdulla o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15332032>

ARTICLE INFO

Received: 25th April 2025
Accepted: 29th April 2025
Online: 30th April 2025

KEYWORDS

Transport vositalari, xavfsizlik qoidalari, kriminalistik xususiyat, jinoyat izlari, kriminalistik ekspertiza, dalillar, jinoyatning obyektiv belgilari, subyektiv belgilar, oldini olish.

ABSTRACT

Ushbu maqola transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish bilan bog'liq jinoyatlarning kriminalistik xususiyatlariga bag'ishlangan. Maqolada ushbu turdagi jinoyatlarning obyektiv va subyektiv belgilari, sodir etilish usullari, jinoyat izlari, shuningdek, kriminalistik tadqiqotda qo'llaniladigan asosiy metodlar tahlil qilinadi. Jinoyatlarning xususiyatlarini aniqlashda kriminalistik ekspertiza va dalillarni to'plashning ahamiyati, shu bilan birga, ushbu jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan takliflar ko'rib chiqiladi. Maqola kriminalistika va huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar uchun mo'ljallangan.

Barchamizga ma'lumki, so'nggi vaqtlarda hayotimizni transport vositalarisiz tasavvur qilish qiyin. Ular kundan kunga har bir shaxsning shaxsiy hayotiga singib bormoqda. Biroq bugungi kunda nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyoda transport vositalari insonlar



uchun qanchalik muhim va qator afzalliklar vujudga keltirayotganligiga qaramasdan, ba'zan jiddiy ko'ngilsizliklar keltirib chiqarishi mumkinligini ham unutmasligimiz lozim. Shuning uchun ham davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev 2022-yil 11-fevral kuni o'tkazgan videoselektor yig'ilishida mamlakatda 2021 yilda 10 mingdan ziyod YTH sodir etilib, ularda 9 mingdan ortiq fuqaro jarohatlanganligi, eng achinarlisi, 2,5 mingga yaqin odam, shu jumladan 263 nafar bola halok bo'lgani kabi statistik ma'lumotlarni og'riq bilan tilga olib, yuqoridagi muammolarning barchasi ham ijtimoiy, ham iqtisodiy, ham xavfsizlik masalalariga bevosita bog'liqligini ta'kidlab, "2022 yilda barcha hududlarda "Xavfsiz yo'l va xavfsiz piyoda" umummilliy dasturini amalga oshiramiz" deb aytib o'tdi¹.

Zotan, yo'l harakati xavfsizligi davlatimizda eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. YTH jamiyat va davlatga juda katta iqtisodiy, demografik va ijtimoiy zarar keltiradi. Respublikamizda 2021-2022 yillarda transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatlari jami sodir etilgan jinoyatlarning 2 foizini tashkil qilgani² ham fikrimizni tasdiqlab turibdi.

Tahlillarga ko'ra, 2024-yilda Respublikamiz hududida jami **10433** ta jinoyatga oid YTHlar sodir etilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2023-yilda **9906** tani, 2022-yilda esa **10004** tani tashkil etgan.

2024-yilda O'zbekiston Respublikasi Jkning **266-moddasi** 1-qismi bilan **7298** ta, 266-moddasi 2-qismi bilan **2481** ta, 266-moddasi 3-qismi bilan 654 ta jinoyat ishi qo'zg'atilgan bo'lsa, 2023-yilda ushbu ko'rsatkich **266-moddasi** 1-qismi bilan **7818** tani, **266-moddasi** 2-qismi bilan **1910** tani, 266-moddasi 3-qismi bilan 178 tani, 2022 yil davomida **266-moddasi** 1-qismi bilan **7805** tani, 266-moddasi 2-qismi bilan **1991** tani, 266-moddasi 3-qismi bilan **208** tani tashkil etgan.

2024-yilning 12 oyi davomida qo'zg'atilgan jinoyat ishlarining 2668 tasi ayblov xulosasi, 4072 tasi ayblov dalolatnomasi, 2616 tasi yarashuv va 1 tasi tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash uchun sudga yuborilgan bo'lsa, **2023-yil** davomida 2779 ayblov xulosasi bilan 2805 tasi ayblov dalolatnomasi bilan 3016 tasi tasi yarashuv bilan va 3 tasi tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash uchun sudga yuborilgan. **2022-yil** davomida ayblov xulosasi bilan 2712 tasi, ayblov dalolatnomasi bilan 3330 tasi, yarashuv bilan 3088 tasi va 4 tasi tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash uchun sudga yuborilgan.

Taqdim etilgan statistik ma'lumotlar, bir tomondan, yo'l-transport sohasida jinoyatchilikning yuqori darajasini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, ushbu jinoyatlarni ochish va tergov qilishning etarli darajada samarador emasligini ko'rsatadi.

Bilamizki, transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatlari avtomobil yo'llarida insonlar tomonidan boshqariladigan turli xildagi mexanik va mexanik bo'lmagan transport vositalari bilan boshqa shu turdagi transport vositalari yoki harakatlanayotgan (harakatda bo'lmagan) piyodalar yoxud yo'lovchilar o'rtasidagi murakkab "dinamik tizim"da yuzaga kelishi bilan boshqa turdagi jinoyatlardan keskin farq qiladi. Bunda bir necha yuz yillar avval o'rnatilgan va shu kunga qadar jamiyat rivojiga monand tarzda takomillashtirilib kelinayotgan "qoidalar tizimi" muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ <https://sputniknews.uz/20220211/> (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 24.10.2023 й)

² <https://yhxx.uz/uz/statistics/> (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 24.10.2023 й)



Zero, B.E. Esimbetova aytib o'tganidek, "Jinoyatlarni tergov qilishda ko'zlangan maqsadga erishish uchun tergovchi yoki surishtiruvchi eng avvalo, o'zi tergov yoki surishtiruv harakatlarini olib borayotgan jinoyatning kriminalistik tavsifini anglab etishi lozim"³.

Biroq transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatlarining kriminalistik tavsifi haqida fikr yuritishdan avval ushbu jinoyatga aloqador ayrim tayanch tushunchalarni mazmun-mohiyatini chuqur anglab etishimiz darkor. Zero, muayyan jinoyat turi haqida aniq fikr-mulohaza yurgizish uchun aynan ushbu jinoyatning mohiyati va mazmunini anglab etish zarur sanaladi.

Fikrimizcha, ushbu turdagi jinoyatlar transport vositalari harakati orqali yo'lda harakatlanish davomida yo'l harakati qoidalariga amal qilinmasligi natijasida yo'l-transport hodisasi yuz berishi orqali sodir etiladi. E'tibor qaratadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi "Yo'l harakati qoidalarini tasdiqlash to'g'risida" 172-son qarori bilan tasdiqlangan "Yo'l harakati qoidalarini"⁴da "transport vositasi", "yo'l", "yo'l harakati", "yo'l harakati qoidalarini" va "yo'l-transport hodisasi" kabi asosiy tushunchalarga batafsil ta'rif berib o'tilgan. Shundan kelib chiqib, biz ularning barchasiga munosabat bildirishdan yiroqmiz. Ammo ushbu tayanch tushunchalarning bir jihati e'tiborimizni tortdi.

Xususan, yuqoridagi "Yo'l harakati qoidalarini"ning I bob, 6-bandida yo'l harakatiga, "odam va yuklarni transport vositalari yordamida yoki bunday vositalarsiz yo'llar doirasida tashish yoxud yo'l harakati qatnashchilarining yo'llarda harakatlanishi jarayonida yuzaga keluvchi munosabatlar majmui" sifatida ta'rif berilgan.

Huquqshunos olim M.X. Rustambaev esa yo'l harakatiga ta'rif berib, uni muayyan qoidalarga bo'ysunuvchi piyodalar, haydovchilar, yo'lovchilar, transport vositalari harakatini qamrab oluvchi ijtimoiy-texnik tizim ekanligini, harakat, asosan, yo'llar bo'yicha, ayrim hollarda yo'l bo'lmagan sharoitda (qurilish maydonchalarida, ko'chalarda, temir yo'ldan o'tish joylarida, tashkilotlarning ishlab chiqarish hududlarida, dalalarda va h.k) amalga oshirilishini ta'kidlagan va "transport vositasi harakati" tushunchasi bilan uyg'unlashtirgan⁵.

Nazarimizda, "Transport vositalari harakati" va "yo'l harakati" atamalarining ta'rifi o'xshash bo'lsada, lekin ularni aynan deb bo'lmaydi. Sababi, "transport vositalari harakati" tushunchasi yo'llardan tashqarida sodir etilgan hodisalarni ham qamrab oladi. "Yo'l harakati" esa o'z nomi bilan yo'llarda yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar majmuidir. Mazkur ikki tushunchani alohida qo'llanilishi yo'l-transport hodisalari bo'yicha yuritiladigan hisobotlarning ham to'g'ri talqin etilishiga va tegishli profilaktik chora-tadbirlarni to'g'ri tanlanishiga zamin yaratadi.

Shu bois, qonunchilik hujjatlariga "transport vositalari harakati" atamasini kiritishni va unga quyidagicha ta'rif berishni taklif etamiz:

³ *Yesimbetova B.E.* Qasddan badanga shikast yetkazish jinoyatlarini tergov qilishni takomillashtirish. Yu.f.b.f.dok(phD) dis. – T., 2022. – 38 b.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 12 apreldagi "Yo'l harakati qoidalarini tasdiqlash to'g'risida" 172-son Qarori bilan tasdiqlangan "Yo'l harakati qoidalarini"

⁵ Rustambaev M.X. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. Maxsus qism. Toshkent-2021.-493 b



Transport vositalarining harakati bu transport vositasining yurgizgich (dvigatel) ta'sirida o't olishi natijasida yoki uning ta'sirisiz muqim turgan joyidan qo'zg'alishi oqibatida ma'lum bir holatdan boshqa bir holatga o'tish jarayonidir.

Barchamizga ayonki, jinoyatlarni ochish va tergov qilish metodologiyasining asosiy tarkibiy bo'g'inlaridan biri bo'lgan, kriminalistik tavsif hodisa to'g'risidagi oxirgi ma'lumotlarni tizimlashtirish va yagona yaxlit xulosaga birlashtirish imkonini beradi. Boshqa tomondan, uning o'zi jinoyatlarni ochish va tergov qilishning maqsadli va eng samarali usullarini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi va aniq jinoyatni ochishda tergovchining ijodiy va aqliy faoliyatini faollashtirishga yordam beradi⁶.

Garchi transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatlarini tergov qilishda ularning kriminalistik tavsifi muhim sanalsada, tadqiqot davomida o'tkazilgan tahlillar bugungi kunda sud-tergov amaliyotida xizmat qilayotgan surishtiruvchi va tergovchilarning aksariyat qismi "kriminalistik tavsif" nima ekanligini to'liq anglab etmasligini ko'rsatmoqda.

Shuning uchun kriminalistik tavsif tushunchasini, unga olimlar tomonidan berilgan ta'riflarni yoritib o'tish maqsadga muvofiq deb topdik. Jinoyatlarning kriminalistik tavsifi har doim olimlarning diqqat markazida bo'lganligi uchun bu borada ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Biroq, olimlar orasida xali-xanuzgacha kriminalistik tavsif deganda nimani tushunish lozimligi yuzasidan yagona to'xtam yo'q.

Jumladan, A.Yu. Golovin "kriminalistik tavsif jinoyatning axborot modeli bo'lib, uni sodir etish mexanizmining tipik qonuniyatlarini aks ettiradi" deb ta'kidlaydi⁷. G'.A. Abdumajidov esa, jinoyatlarning kriminalistik tavsifiga "ko'rib chiqilayotgan jinoyat turlarining eng muhim tomonlari to'g'risidagi umumlashtirilgan daliliy ma'lumotlar hamda ularga asoslangan ilmiy xulosalar va tavsiyalar tizimi"⁸ deb ta'rif bergan.

T.B. Mamatqulov va bir guruh olimlar fikricha, jinoyatlarning kriminalistik tavsifi tur, guruh va alohida jinoyatni sodir etish usuli, mexanizmi va o'ziga xos sharoiti kabi kriminalistik ahamiyatga ega alomatlarida, o'z aksini topgan hamda jinoyat sub'ektining shaxsi va boshqa holatlar, muayyan jinoiy harakat va nihoyat jinoyatlarni ochish, tergov qilish va oldini olish bilan bog'liq vazifalarni muvaffaqiyatli tarzda hal qilishni ta'minlash tushuniladi⁹.

R.A. Alimova va A.N. Norboevlar fikriga ko'ra, kriminalistik tavsif tushunchasi tarkibiga muayyan jinoyatlarning daliliy ahamiyatga ega bo'lgan eng muhim belgilaridan tashqari ularga asoslangan holda ishlab chiqiladigan ilmiy xulosa va tavsiyalarni ham kiritish lozim¹⁰.

N.P. Yablokov esa kriminalistik tavsifni jinoyatlarni ochish, tergov qilish va oldini olishni ta'minlash maqsadida jinoyatlarning kriminalistik ahamiyatga ega bo'lgan belgilari tavsifining tizimi deb baholaydi¹¹.

⁶ Фомичев А.А. К вопросу о способе совершения дорожно-транспортных преступлений как элементе криминалистической характеристики https://elibrary.ru/download/elibrary08093_85202462.pdf (Elektron manbaga murojaat qilgan sana: 01.01.2023).

⁷ Головин А.Ю. Роль криминалистической характеристики преступления в структуре частной криминалистической методики //Актуальные проблемы современной юридической науки и практики: Материалы Международ. научно-практич. конф. Ростов-на-Дону: ДЮИ, 2013. – С. 91.

⁸ Abdumajidov.G'.A. Kriminalistika:Darslik.-T.,2003.-B.219

⁹ Mamatqulov.T.B Kriminalistika:Darslik/ O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2021.- 384-b

¹⁰ Alimova R.A., Norboev A.N.. Jinoyatlarni tergov qilish usullari: O'quv qo'llanma. – T.: TDYuI nashriyoti, 2007. – 12-b.



R.S. Belkinning yozishicha, aniq jinoyatning kriminalistik tavsifi kriminalistik metodikaning bir elementi sifatida ega bo'lgan vazifalarni bajara olmaydi va amalda uning umuman keragi ham yo'q¹².

L.Ya. Drapkin esa jinoyatlarning kriminalistik tavsifi har qanday jinoyatning muhim tomonlari va xususiyatlarini aks ettiruvchi eng umumiy holatlar majmui bo'lib, ular jinoyat ishini tergov qilish va sudda ko'rib chiqishda protsessual vositalar bilan aniqlanishi kerak deb hisobladi¹³.

Yuqoridagi olimlarning kriminalistik tavsif haqidagi fikr-mulohazalarini tahlil qilar ekanmiz, G'.A. Abdumajidovni fikrlarini to'liq qo'llab-quvvatlaymiz. Chunki haqiqatdan ham kriminalistik tavsif bizga har bir ko'rib chiqilayotgan jinoyat turi bo'yicha asoslangan ilmiy xulosalar va tavsiyalar tizimini shakllantirishga asos bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan qaraydigan bo'lsak, R.A. Alimova, A.N. Norboev, N.P. Yablokov va L.Ya. Drapkinlarning fikr-mulohazalari ham G'.A. Abdumajidov tomonidan berilgan ta'rifni qo'llab-quvvatlagan. A.Yu. Golovinni ta'rifiga keladigan bo'lsak, u kriminalistik tavsifga kommunikativ jihatdan yondashgan bo'lib, ushbu tushuncha ham jinoyat bo'yicha asoslangan ilmiy xulosalar va tavsiyalar tizimi tarkibini tashkil etadi.

Shu bilan birga biz R.S. Belkinning fikrni birinchi qismiga to'liq qo'shilamiz, biroq, uning ikkinchi qismida chiqarilgan xulosasi ilmiy munozaraga olib keladi. Nazarimizda har bir jinoyat o'ziga xos bo'lgan kriminalistik xarakterdagi jihatlariga ega bo'ladi.

Yuqoridagi ilmiy munozaralardan kelib chiqib, alohida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan jinoyatlarning alohida turlari va guruhleri kriminalistik tavsifning mazmuni klassik elementlar majmuasidan farq qilishi mumkin degan xulosaga kelamiz. Misol uchun yo'l-transport hodisasi bilan bog'liq jinoyatlarning kriminalistik belgilarining elementar tarkibi ob'ektiv va sub'ektiv omillar bilan belgilanadigan bir qator belgilarga ega. Birinchisi, ko'rib chiqilayotgan toifadagi jinoyatlarning sodir etilishi bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlar, ularning funktsional tomoni, mexanizmi, belgilari, oqibatlarini, ikkinchisi, ilmiy jamoatchilikda kriminalistik xususiyatlar elementlarini idrok etish va talqin qilishning individual xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Bu borada, L.A. Vasilenko va O.V. Ovchinnikovalarning yo'l-transport hodisasi bilan bog'liq jinoyatlarning kriminalistik tavsifining elementlari majmuiga jinoyat sub'ekti va jabrlanuvchining shaxsiy xususiyatlari, jinoyat sodir etilgan vaqt, joy, holatlar; iz hosil qilish xususiyatlari va jinoyat mexanizmi kirishi haqidagi fikrlarini¹⁴ qo'llab-quvvatlaymiz.

Yuqorida bayon etilgan olimlarning fikr-mulohazalarini va tergov amaliyotini chuqur tahlil qilish natijalaridan kelib chiqqan holda transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatlarining kriminalistik tavsifi tushunchasiga quyidagi mualliflik ta'rifini taklif qilamiz. Ya'ni:

¹¹ Яблоков Н.П. Понятие криминалистической характеристики преступлений <http://lawlibrary.ru/article1099001.html> (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 18.01.2023).

¹² Белкин Р.С. Курс криминалистики. Т. 3. ~ С. 318.

¹³ Драпкин Л. Я. Проблемы общей теории раскрытия преступлений и криминалистическая тактика // Теоретические проблемы криминалистической тактики. <https://www.dissercat.com/content/problemy-teorii-i-praktika-rassledovaniya-prestuplenii-sopryazhennykh-s-otchuzhdeniem-zhilya> (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 05.01.2023).

¹⁴ Василенко Л.А., Овчинникова О.В. Расследование дорожно-транспортных преступлений: учебно-методическое пособие. М.: ДГСК МВД России. 2011. С. 13.



Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatlarining kriminalistik tavsifi bu ushbu toifadagi jinoyatlarni tez va to'la ochish, jinoyat sodir etgan haqiqiy aybdorlarni fosh etish, jinoyatning sababi va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish uchun ahamiyatli bo'lgan jinoyatni sodir etish motivi, vaqti va joylari, jinoyatni sodir etgan va jabrlangan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar tizimidir.

"Haydovchi" tomonidan yo'l harakati yoki transport vositasidan foydalanish qoidalarini buzilishini sabablari ob'ektiv va sub'ektiv hususiyatga ega.

Ob'ektiv sabablarga har qanday tashqi sharoitlar, ya'ni haydovchining odatdagi haydash texnikasini o'zgartirishi, to'qnashuv, haydovchi tomonidan to'qnashuv va boshqa xavfli oqibatlariga yo'l qo'ymaslik uchun belgilangan yo'l harakati qoidalarini buzishga majbur bo'lishi kabilar kiradi.

Subektiv sabablarga esa, zaruratdan kelib chiqmagan holda yo'l harakati qoidalarini qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasidan buzishi, haydovchining kasbiy tayyorgarligi etarli emasligi, yo'l harakati holatini noto'g'ri baholashi yoki tajriba etishmasligi tufayli transport vositasini noto'g'ri boshqarish texnikasidan foydalanishi, haydovchining ishlashi va reaksiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan psixofizik o'zgarishlar, ya'ni haddan tashqari charchash, spirtli ichimliklar iste'mol qilish, kasallik va boshqalar kiradi.

"Transport vositasi" bo'g'inidagi yo'l harakati yoki transport vositasidan foydalanish qoidalarini buzilishiga sabab bo'luvchi omillarga transport vositasining texnik nosozligi va ulardan foydalanish qoidalarining buzilishi kiradi.

"Yo'ldagi holat" transport vositasi harakatini boshqarish tizimining elementi sifatida: harakat amalga oshirilayotgan hududdagi yo'lning texnik xolatiga (yo'lning profili, ulanish qismi, qoplamasi, nuqsonlari, to'siqlar va shu kabilarga); yo'lning xavf to'g'risida ogohlantiruvchi, to'siqni aylanib o'tishni ko'rsatuvchi va shu kabi boshqa zarur yo'l belgilari va ishoralari bilan qay darajada ta'minlanganligiga; yo'lning harakat amalga oshirilayotgan qismida piyodalar va boshqa transport vositalarining bor-yo'qligiga, ularning harakat yo'nalishlari va tezligiga doir masalalarni o'z ichiga oladi¹⁵.

Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, o'zimiz tomonimizdan tadqiq qilinayotgan transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatlarining kriminalistik tavsifining tarkibi quyidagi elementlardan iborat deb hisoblaymiz:

1) jinoyatni sodir etish usuli; 2) jinoyat sodir etgan shaxs to'g'risida ma'lumot; 3) jabrlanuvchining shaxsi to'g'risida ma'lumot; 4) jinoyat izlari haqida ma'lumot; 5) jinoyat sodir etilgan vaziyat; 6) tergov amaliyotini tahlil qilish va umumlashtirish jarayonida aniqlangan, jinoyatlarni ochish va tergov qilish uchun muhim kriminalistik ahamiyatga ega bo'lgan jinoyat hodisasi bilan bog'liq boshqa ma'lumotlar.

Mazkur jinoyat turining kriminalistik tavsifi tarkibiy elementlari haqida fikr yuritadigan bo'lsak, ko'plab olimlar o'rtasida jinoyat sodir etish usulini transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatlarining kriminalistik tavsifi elementlari qatoriga kiritish bo'yicha qarama qarshiliklar mavjud.

¹⁵ Кирвель В.К. Расследование преступлений, связанных с нарушением правил дорожного движения или эксплуатации транспортных средств: пособие. – Минск: Амалфея 2014. – 10-11 с.



Jinoyat sodir etish usulini ushbu turdagi jinoyatlarining kriminalistik tavsifi elementlari qatoriga kiritishga qarshi bo'lgan olimlar, o'zlarining bu fikrlarini quyidagilar bilan asoslashga harakat qilishadi:

Birinchidan, yo'l-transport hodisasi bilan bog'liq jinoyatlarini sodir etish usullari to'g'risida kelib chiqadigan munozaralarning sababi ko'rib chiqilayotgan jinoyat turiga xos bo'lgan aybning ehtiyotsiz shaklidir¹⁶.

Ikkinchidan, jinoyatni sodir etish usulining (tayyorgarlik, sodir etish, yashirish) to'liq tuzilmasi yo'qligini nazarda tutadi, bu esa ushbu elementni jinoyatlarning kriminalistik tavsifi tarkibiga kiritish zarurligiga shubha tug'diradi. Shunday qilib, jinoyatni sodir etish usulini avtomobil transporti jinoyatlarining kriminalistik tavsifi elementlari tarkibidan chiqarib tashlaydigan pozitsiya tarafdorlari o'z nuqtai nazarini jinoyat sub'ektining uni sodir etishga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha harakatlarni amalga oshirmaganligiga asoslaydi. Boshqacha qilib aytganda, aybning ehtiyotsizlik shakli, ularning fikricha, ko'rib chiqilayotgan elementni jinoyatlarning kriminalistik tavsifidan chiqarib tashlaydi (E.D. Kuranova, A.G. Filippov, V.V. Agafonov, V.G. Tanasevich). Qarama-qarshi pozitsiyaga ko'ra, jinoyatni sodir etish usuli aybning shakliga bog'liq bo'lmagan harakatning ob'ektiv belgisidir (A.A. Bibikov, O.A. Yakovleva, N.L. Potapova, N.R. Cheptsov, I.M. Belyaeva)¹⁷.

Shunga ko'ra, A.A. Bibikov va boshqalar jinoyat sodir etish usulini barcha turdagi jinoyatlarning, shu jumladan, yo'l harakati jinoyatlarining kriminalistik tavsifiga kiritishni zarur deb hisoblaydilar.

Bizning fikrimizcha sodir etish usuli bo'lmagan jinoyat mavjud emas. Qolaversa, jinoyatni sodir etish usuli har qanday jinoyatning kriminalistik tavsifining doimiy va o'zgarmas elementi sanaladi¹⁸. Binobarin, jinoyatni sodir etish usulini yo'l harakati jinoyatlarining kriminalistik tavsifidan chiqarib tashlash, tergov jarayoni uchun umumiy ahamiyatiga ko'ra, nafaqat maqsadga muvofiq, balki asossiz hamdir. Bu borada N.P.Yablokovni "ehtiyotsizlik bilan jinoyat sodir etish usuli jinoyatchining belgilangan normalar va talablarga mos kelmaydigan harakatlari va harakatsizligining ob'ektiv va sub'ektiv jihatdan aniqlangan majmuidan iborat"¹⁹ degan fikrlarini to'liq qo'llab-quvvatlaymiz. Shu bilan birga, A.A. Bessonov ta'kidlaganidek "qasddan sodir bo'lmagan jinoyatlarda usulning o'ziga xos xususiyati jinoyatchining o'z harakati (harakatsizligi) oqibatlariga beparvo munosabatda bo'lishidadir"²⁰.

Boshqa tadqiqotchilarning nuqtai nazariga ko'ra esa yo'l harakati jinoyatlarini sodir etish usulini yo'l harakati qoidalarini buzish, yo'l-transport hodisasi va sog'lig'iga og'ir zarar

¹⁶ Аверьянова Т.В., Белкин Р.С., Корухов Ю.Г., Россинская Е.Р. Криминалистика. М.: Издательство НОРМА, 2003. С. 693.

¹⁷ Дудниченко А.Н. О некоторых особенностях способа преступления как важного элемента криминалистической характеристики преступлений, связанных с нарушением Правил дорожного движения и эксплуатации транспортных средств // Вестник Санкт-Петербургского университета МВД России. 2017. № 2. С. 22.

¹⁸ Игнатов А.Н., Пахомов С.В. Влияние качественно-пространственных особенностей местности на выбор и реализацию способа совершения преступления // Общество и право. 2016. № 3. С. 144.

¹⁹ Яблоков Н.П. Криминалистика: учебник. 2-е изд., перераб. и доп. М.: Норма, 2008. С. 380-381.

²⁰ Бессонов А.А. Способ совершения преступления как элемент его криминалистической характеристики // Пробелы в российском законодательстве. 2014. № 4. С. 172.



etkazish yoki bir yoki bir nechta shaxslarning o'limga olib kelgan harakatlar (harakatsizlik) tizimidir²¹.

Shunday ekan biz jinoyat sodir etish usulini transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatlarining kriminalistik tavsifi elementi deb hisoblaymiz.

O'ylaymizki, transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatlarining kriminalistik tavsifida yoritib o'tilgan masalalar ushbu turdagi jinoyatlar bo'yicha tergovga qadar tekshiruv olib borishda va jinoyat ishini tergov qilishda yo'nalishni to'g'ri belgilashga xizmat qiladi.

²¹ Дудниченко А.Н. О некоторых особенностях способа преступления как важного элемента криминалистической характеристики преступлений, связанных с нарушением Правил дорожного движения и эксплуатации транспортных средств // Вестник Санкт-Петербургского университета МВД России. 2017. № 2. С. 135.